

XITOIY VA O'ZBEK TILLARIDA GAPNING AKTUAL BO'LAKLARGA BO'LINISHI

Shohzodjon Baxtiyor o'g'li Qayumov

Samarqand davlat chet tillar instituti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xitoy va O'zbek tillarida gapning aktual bo'laklari nazariyasi, sintaktik tahlili, ularning qo'llanilishi kabilar yoritilib, misollar yordamida aniq tushuntirib berildi.

Kalit so'zlar: aktual bo'laklar, kommunikativ muhit, V.Matezius ta'limoti, funksional tahlil.

KIRISH

Gapning aktual bo'laklari nazariyasi jumlaning muayyan nutq muhitiga munosabati muammosiga asoslanib, unda asosiy urg'u jumlaning asosini tashkil etuvchi hamda xabarning yadrosini belgilovchi unsurlarga qaratiladi. Bu jihatdan gapning aktual bo'laklari yosh grammatikachilarning psixologik sub'ekt va psixologik predikat deb nomlangan tushunchalari bilan juda yaqin turadi. Chunki gapning aktual bo'laklari ikkiga bo'linib, ularning birini Vilen Matezius gapning boshlanish nuqtasi yoki "asos" (osnova) deb, ikkinchisini esa "yadro" deb nomlaydi. Bu o'rinda asos deganda nutq muhiti qurshovida tinglovchiga ham, so'zlovchiga ham ma'lum bo'lgan gap unsuri, yadro deganda esa so'zlovchi asos deb nomlanayotgan ana shu unsur haqida ma'lumot beradigan va jumla orqali ifodalanayotgan xabarning yadrosini tashkil etuvchi unsur tushuniladi. Xabarning yadrosini psixologik predikat bilan, asosini esa psixologik sub'ekt bilan qiyoslash mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Gapning aktual bo'laklarga bo'linishi odatdagi sintaktik tahlildan keskin farq qiladi. Ma'lumki, formal-sintaktik tahlilda gapning bosh bo'laklari - ega va kesimning hamda uning ikkinchi darajali bo'laklari - aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol kabilarning sintaktik vazifalari to'g'risida so'z yuritiladi. Aslini olganda, formal-sintaktik tahlil deb ataluvchi bu nazariya ko'p jihatdan mantiqiy qoidalarga asoslanadi.

Gapning aktual bo'laklari nazariyasi esa, aslida u ham mantiqiy qoidalarga asoslansa-da, asosiy e'tiborni jumla

komponentlarining kommunikativ jarayonida bajaradigan nutqiy funktsiyalariga qaratadi. Masalan:

Temur Malik otga qamchi bosdi (Mirmuhsin. Temur Malik).

我父亲清空了一碗美味的菜

Otam bamaza deb bir kosa ovqatni bo'shatdilar.

Berilgan jumlaning aktual bo'laklarga bo'linishiga e'tibor beraylik. Bu o'rinda, agar kimning otga qamchi bosganligi nazarda tutilayotgan bo'lsa, Temur Malik so'zi jumlaning yadrosi hisoblanadi va otga so'zi jumlaning asosi sanaladi. Temur Malikning nimaga qamchi urganligini aniqlash kommunikativ muhit tomonidan talab qilinganda esa otga so'zi jumlaning yadrosi, Temur Malik so'zi asos vazifasini bajaradi. Bordi-yu Temur Malikning nima qilganligi xabar markazini tashkil etgan bo'lsa, u holda qamchi bosdi so'zi yadro, Temur Malik esa asos funktsiyasida keladi.

Xitoy tilidagi misolni tahlil qiladigan bo'lsak, kim ovqatni yeganligiga mantiqiy urg'u berilayotgan bo'lsa 爸爸 (otam) so'zi gapning yadrosi, 菜 (ovqat) so'zi esa gapning asosi sanaladi. Otamning nimani yeganligi nazarda tutilayotgan bo'lsa, u holda 菜 (ovqat) so'zi jumlaning yadrosi, 爸爸 (otam) so'zi esa asosi vazifasini bajaradi. Agar otamning nima qilganligi gapning markazida bo'lsa, unda 清空 (bo'shatdilar) so'zi yadro, 爸爸 (otam) so'zi esa asos vazifasida keladi.

Ko'rinadiki, Vilen Matezius tomonidan ilmiy asoslangan gapning aktual bo'laklari nazariyasi asosan ikki termin - jumlaning asosi va jumlaning yadrosi orqali ish ko'radi. V.Mtezius o'zining dastlabki tadqiqotlarida jumlaning asosi termini o'rniga "tema" terminidan ham foydalangan. Lekin hozirgi tilshunoslikda "asos" o'rnida "tema", "yadro" o'rnida esa "rema" terminlari keng qo'llanilmoqda. Bunda tema xabarning so'zlovchiga ham, tinglovchiga ham avvaldan, hech bo'lmaganda, nutq jarayonida ma'lum bo'lgan qismini, rema esa xabarning markazini tashkil etishi nazarda tutiladi.

Gapning aktual bo'laklari nazariyasi V.Matezius ta'limoti asosida rus tilshunosligida ham mukammal talqin etildi. Bunda olimlardan K.Krushelnitskaya, I.Raspopov, V.Gak kabilarning xizmatlari katta bo'ldi.

Rus tilshunosligida esa gapning aktual bo'lagi tahlilida qo'llanilgan terminlar "dannoye" va "novoye" kabi yangi terminlar bilan almashtirildi. Biroq hozirgi paytda "tema" va "rema" terminlari ko'proq qo'llanilmoqda.

So'nggi yillarda bu sohada rus tilshunosi N.Slusareva ko'proq tadqiqot ishlari olib bormoqda. Ingliz tilshunosligida esa M.Hellidening ilmiy kuzatishlari diqqatga sazovordir.

Gapning aktual bo'laklarini belgilashda jumla tarkibida



qo'llanilayotgan ayrim so'zlar ham ahamiyat kasb etadi. Bunday so'zlar, xususan, remani belgilashda alohida o'rin tutadi. Masalan:

Bu yigit Hafizadan ikki-uch yil avval maktabni tamomlagan (Mirmuhsin. Umid).

这个人受了很多苦

Bu odam juda ko'p azob tortgan.

Berilgan gaplarda yigit va 人 (odam) so'zlarining rema ekanligi qat'iydir. Chunki ularning oldidan qo'llanilayotgan Bu va 这个 (bu) ko'rsatish olmoshlari bu so'zlarni alohida ta'kidlamogda. Shuning uchun jumla tarkibidagi boshqa so'zning rema vazifasida kelishi imkoniyati cheklanmogda. Bundan tashqari, ba'zi affikslar ham remani belgilashda muhim o'rin egallaydi. Masalan:

Hamida Bonugagina taalluqli bo'lgan sirni hech kimga aytib bo'lmaydi (P.Qodirov. Avlodlar dovoni).

只有大卫可以先走

Davidgina birinchi ketishi mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Berilgan jumalarda Hamida bonu va David so'zlari o'zbek tilida -gina, xitoy tilidagi esa 只有 (-gina, faqatgina) affikslari vositasida mantiqiy urg'u olmogda va bu uning xabar markazini, yadrosini tashkil etayotganini ko'rsatmogda.

Shuni ham aytish lozimki, gapning aktual bo'laklari faqat o'zlari qatnashayotgan jumladagina funktsional faollik ko'rsatadi. Shuning uchun ma'lum bir jumlada rema vositasida kelayotgan so'z ikkinchi jumlada temaga aylanib qolishi ham mumkin. Masalan:

Bu uylar bari qing'ir-qiyshiq paxsadan. Lekin uylar ularga qadrdon (Oybek. Pokiston taassurotlari).

这个蛋糕还是很热。世界上没有任何东西可以代替它，这是我祖父的爱烤制的蛋糕。

Bu pishiriq haligacha issiqgina. Dunyoda hech narsa o'rnini bosa olmaydigan, buvamning mehri bilan pishgan pishiriq.

O'zbek va xitoy tilidagi birinchi gaplarda, albatta, uylar hamda 蛋糕 (pishiriq) so'zlari rema vazifasida kelmogda. Biroq ikkinchi gaplarda mazkur so'zlar tema mavqeidadir, chunki bu gaplarda xabarning yadrosi o'zbek tilidagi misolda qadrdon so'zi bilan, xitoy tilidagi misolda esa 爱烤制

(mehri bilan pishgan) so'zlari bilan belgilanadi. Bunday bo'lishi tabiiydir, zotan, biz muloqot jarayonida har doim aniqlikdan noaniqlikka qarab boramiz va bunda xabarning markazidagi so'z mantiqiy urg'u bilan belgilanib boraveradi.

Ko'rinadiki, V.Matezusning gapning aktual bo'laklarga bo'linishi nazariyasi jumla komponentlarining kommunikativ jarayonda bajaradigan vazifalarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunga asoslanib ba'zi tilshunoslar buni funksional tahlil nazariyasi deb atashmoqdalar. Masalan, yuqorida tilga olingan N.Slusareva, M.Helide kabi tilshunoslarning tadqiqotlarida buni kuzatishimiz mumkin.

XULOSA

Bizningcha, mazkur masala ancha izohtalab ko'rinadi. Chunki gapning aktual bo'laklarining o'rnini jumla tarkibida barqaror xarakterli emas. Bir gap doirasida qatnashayotgan so'zlarning barchasi tema vazifasida ham, rema vazifasida ham kela oladi. Bu esa ularning mantiqiy urg'u olishi bilan bevosita bog'liqdir. Mantiqiy urg'u esa muayyan bir so'zga so'zlovchi tomonidan va tinglovchi tomonidan turlicha qo'yilishi mumkin. Masalan, so'zlovchi alohida ta'kidlayotgan so'z ba'zan tinglovchida reaksiya uyg'otmasligi, uning o'rniga tinglovchi boshqa bir so'zni ma'no jihatdan muhimroq deb bilishi ham mumkin. Bu umumiy masalaning bir tomonini taqozo etsa, ikkinchi tomondan, gapning aktual bo'laklari mantiqiy urg'u bilan uzviy bog'liq ekan, tilimizni yana mantiqiy qoidalar bilan to'ldirishi aniqdir. Chunki remaning belgilanishi mantiqiy urg'usiz bo'lmaydi. Uchinchidan, mazkur nazariyani sintaktik funktsiya bilan bog'lash qiyin, chunki so'zning sintaktik vazifasi muayyan bir gap sathida barqaror bo'ladi. Ushbu nazariyaga muvofiq esa, bir jumla tarkibidagi har bir so'z tema ham, rema ham bo'la oladi. Bu jarayonda gapning sintaktik strukturasi o'zgarishsiz qolaveradi. Shuni ta'kidlash kerakki, mazkur nazariyadan gapning semantik tahlilida foydalanish mumkin. Chunki aktual bo'laklar nomi bilan atalayotgan gap unsurlari mazmuniy nuqtai nazardan ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. В.И.Горелов. Грамматика китайского языка. М., “Просвещение”, 1974
2. Хитой филологиясига кириш. О'quv qo'llanma., Toshkent 2013
3. Хитой тили дarsligi. О'quv qo'llanma., Toshkent 2014.